**“MINERAL RESURSLAR INSTITUTI” DM HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSC.24/30.12.2019.GM.40.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**“H.M.ABDULLAYEV NOMIDAGI
GEOLOGIYA VA GEOFIZIKA INSTITUTI” DM**

MUNDUZOVA MAVLYUDA AKBAROVNA

OLMALIQ MA’DANLI MAYDONI O‘RTA PALEOZOY DAVRI (D_3-C_1) CHO‘KINDI QATLAMLARIDA OLTIN MA’DANLASHUVI XUSUSIYATLARI, KARLIN TIPIDAGI KONLAR BILAN GEOLOGIK VA GEOKIMYOVIY XOSSALARINI QIYOSLASH

04.00.02 – “Qattiq foydali qazilma konlarining geologiyasi, ularni qidirish va razvedka qilish. Metallogeniya va geokimyo”

**GEOLOGIYA-MINERALOGIYA FANLARI DOKTORI (DSc)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent -2025

UO‘K 553.3.048: 553.411(575.1)

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)
Content of the abstract of dissertation doctor of science (DSc)

Munduzova Mavlyuda Akbarovna
Olmaliq ma’danli maydoni o‘rta paleozoy davri (D_3-C_1) cho‘kindi qatlamlarida oltin ma’danlashuvi xususiyatlari, Karlin tipidagi konlar bilan geologik va geokimyoviy xossalarini qiyoslash **3**

Мундузова Мавлюда Акбаровна
Золотоносность среднепалеозойских осадочных толщ (D_3-C_1) Алмалыкского рудного района, сравнительная характеристика геологических и геохимических особенностей с месторождениями Карлинского типа **31**

Munduzova Mavlyuda Akbarovna
Gold-bearing capacity of the Middle Paleozoic sedimentary strata (D_3-C_1) of the Almalyk ore region, comparative characteristics of geological and geochemical features with deposits of the Karlin type **61**

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works **63**

“MINERAL RESURSLAR INSTITUTI” DM HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.24/30.12.2019.GM.40.01. RAQAMLI ILMIY KENGASH

“H.M. ABDULLAYEV NOMIDAGI GEOLOGIYA VA GEOFIZIKA INSTITUTI” DM

MUNDUZOVA MAVLYUDA AKBAROVNA

OLMALIQ MA’DANLI MAYDONI O‘RTA PALEOZOY DAVRI (D_3-C_1) CHO‘KINDI QATLAMLARIDA OLTIN MA’DANLASHUVI XUSUSIYATLARI, KARLIN TIPIDAGI KONLAR BILAN GEOLOGIK VA GEOKIMYOVIY XOSSALARINI QIYOSLASH

04.00.02 – Qattiq foydali qazilma konlarining geologiyasi, ularni qidirish va razvedka qilish. Metallogeniya va geokimyo

GEOLOGIYA VA MINERALOGIYA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent -2025

Doktorlik dissertatsiyasining dissertatsiyasining mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestasiya komissiyasida B2024.2.DSc/GM62 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiyasi “H.M.Abdullaev nomidagi Geologiya va geofizika instituti” davlat muassasasida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.mridm.uz) va “Ziyonet” axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:	**Soy Vladimir Denyevich** geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Pirnazarov Majid Maxkamovich** geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor
	Antonov Aleksandr Yevgenyevich geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor
	Razikov Odil Taxirdjanovich geologiya-mineralogiya fanlari doktori
Yetakchi tashkilot:	**“Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” AJ**

Dissertatsiya himoyasi “Mineral resurslar instituti” DM huzuridagi DSc.24/30.12.2019.GM.40.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil “____” _____ soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100164, Toshkent shahri, Olimlar ko‘chasi, 64-uy. Тел: (71) 209-08-93; e-mail: info@ mridm.uz; gpniimr@exat.uz.).

Dissertatsiya bilan “Mineral resurslar instituti” DMning Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100164, Toshkent shahri, Olimlar ko‘chasi, 64-uy. Tel: (71) 209-08-93).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil “_____” _____ kuni tarqatildi.
(2025 yil “_____” _____dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi)

M.U. Isoqov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi, g.-m.f.d.

S.S. Sayitov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi, g.-m.f.f.d. (PhD)

M.M. Pirnazarov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi g.-m.f.d., professor

KIRISH (fanlar doktori (DSc) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

Tadqiqotning dolzarbligi va zarurati. Jahon amaliyotida oltin, polimetallar, mis, uran, kamyob va tarqoq metallarga bo‘lgan sanoat talabi ortib borayotganligi sababli ma’danlashuvning noan’anaviy turlarini izlash alohida ahamiyatga ega. Geologiya-qidiruv ishlarida konlarning yopiqligi, relyefning noqulayligi hamda ularning chuqurlikda joylashganligi tadqiqotlarning sifati va samaradorligini oshirishni murakkablashtiradi. Shu bilan birga, ochiq qazib olinadigan, ko‘p tonnali ma’danli hosilalarga ega bo‘lgan ochiq, yer yuzasiga yaqin obyektlarda ilmiy tadqiqot va qidiruv ishlarini olib borish zaruriyatini oshirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda dunyoning rivojlangan mamlakatlarida “karlin” tipidagi terrigen-karbonatli yotqiziqlarning oltindorligini aniqlash bo‘yicha maqsadli tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. O‘rta paleozoy davri yoqiziqlarida joylashgan oltin ma’danlashuvining noan’anaviy turlari AQShning g‘arbiy qismida, Rossiyada, Qozog‘istonda ma’lum va ular terrigen-karbonatli yoqiziqlarida aniqlanishi qiyin bo‘lgan tarqoq dispers oltinning ma’danlari bilan ifodalanadi. So‘nggi paytlarda MDH hududlarida ochiq usulda qazib olishga yaroqli bo‘lgan oltin konlarini bashorat qilish bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar olib borilmoqda. Terrigen-karbonat qatlamlarida oltin namoyonlarini izlash va aniqlash respublikaning mineral-xomashyo bazasini kengaytirish imkoniyatini yaratadi.

Respublikada mineral-xomashyo bazasini kengaytirish bo‘yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. Cho‘kindi terrigen-karbonatli jinslar tarkibidagi oltin O‘zbekistonda birinchi marta Chotqol-Qurama (Qorasoy, Seraya Skala, Balantepa, Qatrang‘i), Chaqilqalon (Zarkent), Bukantov (Bulutkon) hududlarida ajratilgan. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida... “Mineral xomashyo bazasini iqtisodiyot ehtiyojlariga mos ravishda kengaytirish...”[1]. bo‘yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Bularning barchasi Respublika uchun noan’anaviy bo‘lgan nodir va boshqa turdagi ma’danlashuv konlarini aniqlash bo‘yicha geologik qidiruv va ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishning maqsadga muvofiqligini belgilaydi.

Mazkur dissertatsiya tadqiqoti natitalari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli farmoni, 2018-yil 1-martdagi “O‘zbekiston Respublikasi Davlat geologiya va mineral resurslar qo‘mitasi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3578-son, 2019-yil 23-iyuldagi “Geologiya sohasiga investitsiyalarni faol jalb qilish, tarmoq korxonalarini transformatsiya qilish va respublikaning mineral xomashyo bazasini kengaytirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5083-son, 2020-yil 8-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi Davlat geologiya va mineral resurslar qo‘mitasi tizimida Geologiya fanlari universiteti faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4740-sonli qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy va uslubiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

[1]O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-60-son Farmoni.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VIII “Yer to‘g‘risidagi fanlar (geologiya, geofizika, seysmologiya va mineral xomashyolarni qayta ishlash)” ustuvor yo‘nalishi talablariga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi.

Terrigen-karbonatli jinslarda oltin va boshqa ma’danlashuvlarning geologik-sanoat turlarini izlash va ajratishga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqotlar yetakchi ilmiy institutlar va ta’lim markazlarida, jumladan: U.S. Geological Survey (AQSH), Centre for Global Metallogeny (Avstraliya), Rangli va nodir metallar ilmiy-tadqiqot instituti - SNIGRI (Rossiya), Butunrossiya mineral xomashyo instituti - VIMS (Rossiya), Qozoqgeologiya (Qozog‘iston), Proceed Quadrennial IAGOD Ottawa (Kanada), Newmont gold corporation (AQSH), Geological Survey of Canada (Kanada), Chinese Academy of Geological Scinces (Xitoy), “Mineral resurslar instituti” DM (O‘zbekiston) da olib borilmoqda.

Butun dunyoda ma’dan hosil bo‘lish geokimyosi va ularning to‘planishini o‘rganish bo‘yicha olib borilgan nazariy va mineralogik-geokimyoviy tadqiqotlar natijasida oltin konlarining eng muhim xususiyatlarini umumlashtiruvchi qidiruv modellari (Nevada, AQSH); Rossiyaning Shimoli-Sharqiy va Baykalorti hududlarida karlin turidagi konlarni qidiruv modeli ishlab chiqildi (FSBI “VIMS”); Shimoliy Nevadada Karlin trendi obyektlarining joylashuvi xaritasi ishlab chiqildi, unda minerallashuv va magmatizmning mutlaq yoshi, qadimgi faollashgan yoriqlar holati ko‘rsatilgan, cho‘kindi fatsiyalarda singenetik oltin minerallashuvini joylashuvi uchun qulay zahiralar diagrammasi tuzilgan (Nevada, AQSh); mineralogik-geokimyoviy tadqiqotlar va ma’dan hosil bo‘lish nazariyasi, geokimyosi, magmatizmi, metamorfizmi va geodinamik sharoitlari bo‘yicha bir qator ilmiy natijalar olindi (Kanada geologiya xizmati, Kanada); qidiruv va geokimyoviy tadqiqotlar natijasida terrigen-karbonatli jinslarda oltin to‘planishini aniqlash uchun istiqbolli hududlar va maydonlar aniqlandi (Qozoqgeologiya, Qozog‘iston); Chotqol-Qurama mintaqasining geologik evolyutsiyasi va geokimyoviy rayonlashtirishni o‘rganish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida geokimyoviy konlar va istiqbolli ma’dan obyektlari aniqlandi (Mineral resurslar instituti, O‘zbekiston).

Hozirgi vaqtda jahonda yopiq turg‘un havzalarda illi sharoitda birlamchi cho‘kindi jinslar bilan bir vaqtda to‘plangan, singenetik-diagenetik konlarni hosil qilgan terrigen-karbonatli qatlamlardagi organogen zarrachalar to‘planishining ularda mineral konsentratorlarning yig‘ilishini aniqlash bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bunday ma’danlashuv turlarining geologik-iqtisodiy jozibadorligi ularning sanoat miqyosida o‘zlashtirilishining ancha arzonligi, yuqori tonnajliligi, oson boyitilishi, ochiq usulda qazib olishga mosligi, boshqa metallarni ham qo‘shimcha ravishda ajratib olish imkoniyati bilan texnologik jihatdan qulay ekanligidadir.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. “Karlin” turidagi terrigen-karbonat yotqiziqlarida oltin ma’dan namoyonlari, hosil bo‘lish sharoitlari va xususiyatlari, joylashish qonuniyatlarini aniqlash bo‘yicha tadqiqotlar ko‘plab jahon va mahalliy tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan, jumladan: J.K. Barber, D.R. Cook, A.S. Radtke, R.O. Rye, W.B. Clark, D.J. Birak, R.B. Hawkins, T.B. Thompson, A.V. Volkov, A.A. Kulakov, I.V. Pleshenko, V.D. Soy, Ye.Z. Meshchaninov, S.T. Badalov, R. Axundjanov, A.X. Turesbekov, I.M. Golovanov, A.P. Titova, J.N. Kuznetsov, M.O. Suleymanov, I.B. Turamuratov, V.N. Joxov, S.G. Chunixin va boshqalar.

Terrigen-karbonatli jinslarni o‘rganishda qamrovchi jinslarning xususiyatlariga, jinslarning geologik-genetik va litologik turlariga alohida e’tibor qaratildi. Natijada geodinamik sharoitlarning ahamiyati, cho‘kindi qatlamlarning muayyan fatsiya va formatsiyalarga bog‘liqligi aniqlandi, uzilmali buzilishlar shakllanishining geologik-strukturaviy xususiyatlari hamda metamorfizm omillarining ta’siri o‘rganildi.

Erishilgan ilmiy-tadqiqot natijalariga qaramay hozirgi kunda terrigen-karbonatli jinslarda mayda oltinning genezisi va kelib chiqishi masalalari to‘liq o‘rganilmagan. Bu esa geologik tadqiqot tashkilotlariga terrigen-karbonat qatlamlarida birlamchi oltinning kelib chiqishini o‘rganish bo‘yicha ishlar olib borish imkoniyatini beradi. Bunda nafaqat retrospektiv obyektlarni, balki O‘zbekiston uchun noan’anaviy bo‘lgan ma’danlashuv turlarini ham jalb qilish zarur.

Dissertatsiya mavzusi dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti “Mineral resurslar instituti” davlat muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining 430-son “Olmaliq KMK mis ishlab chiqarish uchun flyus xom ashyosiga potensial sanoat obyektlarini aniqlash” (1997-1998), 516-son “Kam hajmli ishlab chiqarish uchun oltinga istiqbollarni aniqlash uchun Chotqol-Qurama mintaqasi bazaviy geologik materiallarini kompleks tahlil qilish” (1999-2002), “Olmaliq ma’danli hududining o‘rta paleozoy terrigen-karbonat qatlamlarining oltinga boyligi (Markaziy blok)” (2004), 657-son “Olmaliq grebeni D_3-C_1 karbonat-terrigen jinslarida oltin ma’danlashuvining skarn-polimetall va kolchedan namoyonlarida joylashish qonuniyatlarini o‘rganish” (2005-2009), ITD 509-5.4-80236 “Biotexnologiya usullaridan foydalangan holda yuqori chastotali kremniy dioksidini olish” (2009-2011) mavzularidagi amaliy loyihalar doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Olmaliq ma’danli rayonining o‘rta paleozoy davri (D_3-C_1) cho‘kindi qatlamlarining oltindorligini aniqlash, geologik va geokimyoviy xususiyatlarini Karlin tipidagi konlar bilan qiyosiy tavsiflash, ularning joylashishining geokimyoviy, fatsial-formatsion sharoitlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Olmaliq ma’danli rayoni o‘rta paleozoy cho‘kindi qatlamlarining D_3-C_1 oltindorligini o‘rganish;

Olmaliq ma’danli rayonining geologik-strukturaviy xususiyatlarini aniqlash;

Karlin turidagi konlarni boshqa mintaqalar va hududlar o‘rtasidagi geologik o‘xshashlik va farq belgilarini aniqlash;

Olmaliq ma’dan rayonining terrigen-karbonat qatlamlarida namoyonlarning ma’dan-formatsion turlarini aniqlash;

Olmaliq ma’dan rayonining o‘rta paleozoy yotqiziqlarida qimmatbaho metallar va boshqa namoyonlarning joylashish istiqbollarini aniqlash;

Karlin turidagi konlar va Olmaliq ma’danli rayonidagi konlarning qiyosiy geokimyoviy tavsifi.

Tadqiqotning obyekti sifatida Chotqol-Qurama mintaqasidagi Olmaliq ma’danli rayoni tanlangan.

Tadqiqotning predmeti sifatida Tadqiqotning predmeti Olmaliq ma’danli rayoni o‘rta paleozoy cho‘kindi qatlamlarining (D_3-C_1) oltindorligi, geologik va geokimyoviy xususiyatlarining Karlin tipidagi konlar bilan qiyosiy tavsifi hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotlarda zamonaviy usullar qo‘llanilgan bo‘lib, ular quyidagilarni o‘z ichiga oladi: fond va nashr etilgan materiallarni to‘plash, tahlil qilish va umumlashtirish; dala tadqiqotlari majmuasi (geologik marshrutlar, litologik-fatsial va strukturaviy kesimlar, geokimyoviy va protolochka namunalarini olish); zamonaviy yuqori aniqlikdagi tahlillar yordamida analitik tadqiqotlar o‘tkazish (mass-spektrometrik (ICP-MS), optik-emission spektroskopiya (OES), FA Yadro fizikasi institutining atom reaktorida instrumental neytron-aktivatsion tahlil (INNA), probir tahlili, grand oqim, og‘ir fraksiyalarning mineralogik tahlili. Shuningdek, tahliliy ma’lumotlarni statistik qayta ishlash va tadqiqot natijalarini qiyosiy tahlil qilish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat**:**

Olmaliq ma’danli rayoni o‘rta paleozoy cho‘kindi qatlamlari (terrigen-karbonatli jinslar) D_3-C_1 oltinga boyligi asoslangan, ularda yupqa dispersli oltinni aniqlash uchun istiqbolli bo‘lgan qoratog‘ota, qulota, katrang‘i svitalari va bitumli jinslar ajratilgan;

uzilmali buzilishlar (ortogonal siniqlar, shimoli-g‘arbiy va shimoli-sharqiy uzilmalar) shakllanishining geologik-strukturaviy xususiyatlari va ularning oltin ma’danlashuvining joylashishidagi roli aniqlangan;

Karlin turidagi konlarning Olmaliq ma’danli rayoni obyektlari bilan geologik o‘xshashligi va farqlarining belgilari aniqlangan, mintaqada Karlin turidagi obyektlarni aniqlash istiqbollari belgilangan;

Olmaliq ma’danli rayonida oltin tarkibli ma’danli formatsiyalarning shakllanishi va joylashish qonuniyatlari va minerallashgan zonalarning mineralogik-geokimyoviy xususiyatlari aniqlangan;

cho‘kindi qatlamlarda singenetik-diagenetik (dastlabki bosqichlarda) va epigenetik (kechki bosqichlarda) jarayonlar keng namoyon bo‘lib, ularda foydali komponentlarning, shu jumladan qora, to‘q kulrang dolomitlardagi oltinning qayta taqsimlanishiga olib kelganligi aniqlangan;

Olmaliq ma’danli rayoni terrigen-karbonatli jinslarining oltindorligini Karlin tipidagi namoyonlar va konlar bilan o‘xshash va farqli xususiyatlari qayd etilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Mintaqadagi endogen ma’danlashuvning asosiy qidiruv xususiyatlari, minerallashuvni litologik va stratigrafik nazorat qilish, uni ma’lum fatsiya va formatsiyalar bilan chegaralash, uglerodli moddalar bilan boyitilgan qoratog‘ota, qulota, qatrang‘i svitalari va gorizontlarda namoyon bo‘lgan dolomitlar, ohaktoshlari, argillitlaridan tashkil topgan va konlarning joylashishi bo‘yicha yangi ma’lumotlar olingan;

oltin minerallashuvi yirik mintaqaviy va mahalliy yer yoriqlari bo‘ylab rivojlangan. Ma’danlashuvning joylashishi shimoli-g‘arbiy va shimoli-sharqiy ortogonal surilmalar bilan boshqariladi va ko‘pincha ekran ostida, shuningdek, ichki formatsion va oraliq formatsion pozitsiyalarda tarqalganligi ochib berilgan;

O‘zbekistonda karlin turidagi oltin minerallashuvini aniqlash istiqbollari (karbonatli jinslarda antimonit, kinovar, flyuorit maydonlari ajraladi) – Chotqol tizmasining janubi-g‘arbiy tarmoqlari, Janubiy Farg‘ona zonasi, Zirabuloq tog‘larida joylashgan Oltiovul ma’danli maydoni va shimoliy Tomditovda aniqlangan.

Karlin turidagi oltin ma’danlashuvini izlash jasperoidlarda maqsadga muofiq bo‘lib, shuningdek surma, simob va ftorning geokimyoviy anomaliyalarini qayta ko‘rib chiqish amalga oshirilishi qayd etilgan;

Oltinli ma’danlashuvining namoyon bo‘lishi oltin madanlarda, mis-porfir, skarn-polimetalli va boshqa turlarda ham kuzatilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi sertifikatlangan laboratoriyalarda laboratoriya ishlari bilan tasdiqlanadi. Olmaliq ma’danli rayonining terrigen-karbonatli yotqiziqlarida o‘tkazilgan tadqiqotlar to‘plangan geokimyoviy namunalar va maydalangan namunalarning tadqiqotlari bilan tasdiqlangan. Laboratoriya va tahliliy tadqiqotlar natijalarini aniqlash asosida qoratag‘ota, qulota, qatrang‘i svitalaridagi organik birikmalar bilan boyitilgan dolomit, argillit va ohaktoshlardan tashkil topgan yotqiziqlarda oltin ma’danlashuvining istiqbolliligining ishonchliligini tasdiqlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Olmaliq ma’danli rayonining o‘rta paleozoy cho‘kindi qatlamlarining (terrigen-karbonat jinslari) D_3-C_1 oltindorligi isbotlangan bo‘lib, terrigen-karbonatli qatlamlaridagi qoratag‘ota, qulota, qatrang‘i svitalari va bitumli jinslari, ularda oltinning ma’lum darajada ma’danlashuvining fastiyal-formatsion istiqbollari aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ma’danli jinslarda shimoli-g‘arbiy va shimoli-sharqiy ortogonal strukturalari bilan chegaralanganligi belgilanadi; cho‘kindi qatlamlarda singenetik-diagenetik va epigenetik jarayonlar keng namoyon bo‘lishi, ulardagi foydali komponentlarning, jumladan, qora, to‘q kulrang dolomitlardagi oltinning qayta taqsimlanishiga olib kelishi aniqlangan; Karlin turidagi obyektlar bilan Olmaliq ma’danli rayoni obyektlari o‘rtasidagi geologik o‘xshashlik va farq belgilari aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Terrigen-karbonatli jinslarining oltin potentsialini tadqiq etish natijalari asosida:

Olmaliq ma’danli maydoni o‘rta paleozoy (D_3-C_1) cho‘kindi qatlamlarida oltin ma’danlashuvi tarqalishining geokimyoviy xususiyatlari, geologik-strukturaviy sharoitlari to‘g‘risidagi xulosalar “O‘zbek geologiya qidiruv” AJ amaliyotiga joriy qilindi (Tog‘-kon va geologiya vazirligining 10.02.2025-yildagi 08-0588-sonli ma’lumotnoma). Natijalar oltin ma’danlashuvi joylashuvining geologik-strukturaviy sharoitlarini aniqlash hamda minerallashuvni qidirish va baholash mezonlarini aniqlashga imkon bergan;

Olmaliq ma’danli maydonining ma’dan qamrovchi qoratag‘ota, qulota, qatrang‘i qatlamlarini, litologik-strukturaviy va fatsiyal-formatsion sharoitlarini, oltin ma’danlashuvining geokimyoviy xususiyatlarini kompleks o‘rganishnatijalari “O‘zbek geologiya qidiruv” AJ amaliyotiga joriy qilindi (Tog‘-kon va geologiya vazirligining 10.02.2025-yildagi 08-0588-sonli ma’lumotnomasi). Natijalar mintaqadagi istiqbolli hududlarni bashorat qilish imkonini bergan;

oltin ma’danlashuvi yuqori uglevodorodli cho‘kindi qatlamlarda ortogonal buzilishlar shimoli-g‘arbiy va shimoli-sharqiy yer yoriqlari tizimi bo‘ylab rivojlanishi bo‘yicha ma’lumotlar “O‘zbek geologiya qidiruv” AJ amaliyotiga joriy qilindi (Tog‘-kon va geologiya vazirligining 10.02.2025-yildagi 08-0588-sonli ma’lumotnoma). Natijada oltin ma’danlashuvi uchun qulay pozitsiyalar hosil bo‘lganligi belgilangan;

ma’danlashuvining litologik va stratigrafik qidiruv belgilari, ularning ayrim fatsiya va formatsiyalar bilan bog‘liqligi hamda hududning endogen minerallashuvi xususiyatlari “O‘zbek geologiya qidiruv” AJ amaliyotiga joriy qilindi (Tog‘-kon va geologiya vazirligining 10.02.2025-yildagi 08-0588-sonli ma’lumotnoma). Natijada mintaqada oltin ma’danlashuvini qidirishning litologik va stratigrafik qidiruv belgilari hamda ma’danlashuv rivojlanishi uchun qulay fatsiya va formatsiyalar aniqlashga imkon bergan;

Chotqol-Qurama tog‘larining ma’dan qamrovchi qoratag‘ota, qulota, qatrang‘i svitalari yotqiziqlaridagi yuqori uglerodli dolomit va ohaktosh maydoni bilan bog‘liq bo‘lgan yangi oltin ma’danli maydonlari “O‘zbek geologiya qidiruv” AJ amaliyotiga joriy qilindi (Tog‘-kon va geologiya vazirligining 10.02.2025-yildagi 08-0588-sonli ma’lumotnoma). Natijalar yuqori uglerodli dolomit va ohaktosh qatlamlarida oltinni ma’danlashuvi bo‘yicha tematik va qidiruv ishlarini olib borish zarurligini asoslash imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 7 ta xalqaro va 11 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 26 ta ilmiy ish chop etilgan. Ulardan 1 ta monografiya, ixtisoslashtirilgan ilmiy jurnallarda 14 ta ilmiy maqola, shu jumladan 5 tasi xorijda, 11 ta tezis xalqaro va respublika miqyosidagi konferensiya va kengashlar to‘plamlarida chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, oltita bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiya hajmi 190 bet, jumladan 42 rasm, 21 jadvalni tashkil etadi.

DISSERTASINING ASOSIY MAZMUNI

Kirishda olib borilgan tadqiqot ishining dolzarbligi, talabi, amalga oshirilgan ishlarning maqsad va vazifalari asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnikasi rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi ko‘rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati ochib berilgan, chop etilgan maqolalar va dissertatsiya tuzilishi haqida ma’lumotlar berilgan.

“Chotqol-Qurama mintaqasining o‘rta paleozoy cho‘kindi yotqiziqlari (D_3-C_1)” birinchi bobida ordovik-silur slaneslarini o‘z ichiga olgan eng yoshi qari tuzilmalar paydo bo‘lgan vaqtdan boshlab mintaqani geologik o‘rganish ko‘rsatilgan. Mazkur vaqtda mintaqada dengiz rejimi hukmronlik qilgan va chuqur dengiz illi cho‘kindi yotqiziqlari to‘plangan, ular bilan ma’dan hosil qiluvchi metallar bog‘langan. Ularning orasida qumtoshli qatlamlarining mavjudligi cho‘kish jarayonining qaytariluvchi xususiyatini ko‘rsatadi. Metamorfik omillar ta’sirida bu konlar keyinchalik slaneslar, dolomitlar, argillitlar, ohaktoshlar, alevolitlar, jasperoidlar, qumtoshlar hisobidan cho‘kindi metamorfik jinslarning qalin qatlamlari vujudga kelgan bo‘lib, ular bilan oltin va boshqa ma’dalashuvlar bog‘liq.

O‘rta karbon davrining boshida sayoz dengizli muhit boshlanib, bunda mergelli ohaktoshlar va alevrolitlar yotqizilgan. Dengiz rejimining kontinentalga o‘tish davrida tektogenez va magmatik faollikning yangi, erta varis siklining boshlanishi bilan tavsiflanadi. Varis tektogenezi ikki bosqichda davom etdi. Yuqori mingbuloq davrida o‘rta va asos tarkibli lavalar (andezit va bazalt porfiritlar) otilib chiqqan. O‘rta paleozoyning boshida kaledon siklida intensiv eroziyaga uchragan. O‘rta devonda mintaqa dengiz transgressiyasi bilan qoplangan. Dengiz rejimi o‘rta devon va o‘rta karbon D_2-C_2 boshlarida mavjud bo‘lgan.

Minbuloq svitasidagi lavalarning quyilishidan keyin tektonik va magmatik faollik kuchaygan. Yuqori bo‘r davrida dengizning transgressiyasi yuz berdi, bu eotsenacha davom etgan. Mazkur davrda qumtosh va ohaktoshlar hosil bo‘lgan.

To‘rtlamchi davrda bu jarayonlar davom etib, daryo tarmog‘i va butun relyefning yanada rivojlanishi va murakkablashishi bilan davom etgan. Cho‘qqilar va daryo vodiylarida bo‘lakli jinslar (deluviy, prolyuviy, allyuviy) to‘plangan.

Olmaliq ma’danli rayonida endogen hosilali konlar hamda yuqori haroratlidan (skarnlar) past haroratli gidrotermalgacha (kvarstlashgan, dolomitlashgan, argillitlashgan zonalar) va turli xil geologik formatsiyadagi sanoat konlariga misol sifatida: mis-porfirli, skarn-polimetalik hamda xususan oltindor konlarga boy vulqonogen, skarnli va terrigen-karbonatli jinslar rivojlangan.

Chotqol-Qurama mintaqasining mis-porfirli konlari $C_{1\text{-}2}$ intruziv formatsiyasining gabbro-diorit-granodioritli qatorida joylashgan. Bu jinslarning rivojlanish zonalarida ko‘plab misli, mis-vismutli, polimetalli, mis-oltinli va oltin tomirli namoyondalar (Qulchuloq, Qovuldi, Pistali, Oqturpoq) uchraydi.

Qo‘rg‘oshin-rux konlari (Qo‘rg‘oshinkon, Qoraxona, Qulchuloq, Oqtosh) D_2-C_1 skarnlashgan karbonatli yotqiziqlarda joylashgan. Ma’danlashish metasomatik o‘zgargan

tog‘ jinslari, magniyli skarnlar zonalari, serpantinlashgan karbonatli jinslar bilan bog‘liq. Ma’dan qamrovchi jinslar sulfat sig‘diruvchi terrigen-ohaktosh-dolomitli tuzilmalar sirasiga kirib ular vodorod sulfidi bilan to‘yingan sayoz suvli qirg‘oq-lagun zonalari fatsiyal kamarlari bilan chegaralangan turg‘un zonalarda hosil bo‘lgan.

Olmaliq ma‘danli rayonida oltin ma’danlashuvi mustaqil shaklda D_3-C_1 terrigen-karbonatli qatlamlarda, shuningdek ular bilan aloqada bo‘lgan holda ko‘plab kon va namoyondalar (Qorasoy, Seraya Skala, Zarkent, Qatrang‘i, Qoratog‘ota) hosil qilgan holda joylashgan.

Olmaliq ma’danli rayonining tektonik tuzilishi juda murakkab, to‘rtta siklga ajralib turadi, ular o‘z navbatida magmatik faollik bilan birga burmalanishning alohida fazalariga bo‘linadi.

Olmaliq mintaqasidagi tektonik jarayonlarning vaqt o‘tishi bilan rivojlanishi quyidagicha kechgan: kaledon sikli quyi devongacha bo‘lgan faza, jivetgacha bo‘lgan faza; gertsin sikli minbuloqgacha, aqchagacha, nadakgacha, sho‘rabsoydan oldingi faza, sho‘rabsoydan keyingi faza, alp burmalanish davriga bo‘linadi.

Ushbu sikllar davomida mintaqaning burmali va yer yoriqlari tuzilmalari shakllangan.

Burmalangan tuzilmalar. Olmaliq, shuningdek, umumiy Qurama subzonasining (Qoramazor) geologik tuzilishi murakkab. Mintaqaning burmalangan tuzilmalari haqidagi ma’lumotlar bir-biriga ziddir. Olmaliq ma’danli rayonining qora, organik moddalarga boy dolomitlari va slaneslari juda sokin sharoitda, tektonik jihatdan barqaror kontinental bloklar ustida yoki ularga yaqin joyda yotqizilgan deb taxmin qilinadi. Eng boy va yirik konlardan ba’zilari, bu bloklarning chekkasida, yoki ehtimol barqaror sharoitda rivojlangan.

Ko‘pchilik tadqiqotchilar ma’lum konlarning intruzivlar bilan fazoviy bog‘liqligiga asoslanib, granitoidli magmaning ma’dan hosil qiluvchi faktor sifatida belgilaydi. Shu bilan birga, magmatik faollashuvdan oldingi sedimentatsiya tarixiga juda kam e’tibor beriladi. Bizning fikrimizcha, sedimentogenez, diagenez, nurash, parchalanish, terrigen va vulkanogen materialni tashish, epigenez kabi jarayonlarning kombinatsiyasi cho‘kindi qatlamlarda ma’danli moddalari (shu jumladan oltin) konsentratsiyasining ortib borishigs olib kelgan.

Ikkinchi bob **“Olmaliq ma’danli rayonining geologik-strukturaviy xususiyatlari”**. Olmaliq ma’danli rayoni Qurama tizmasining shimoli-g‘arbiy yon bag‘rida joylashgan bo‘lib, O‘zbekistondagi rangli va oltin metallurgiyaning eng muhim hududi hisoblanadi. Bu yerda shtokverkli mis-molibden, polimetall, oltin va boshqa ma’danli konlar mavjud (1-rasm). Mazkur konlar negizida Olmaliq kon-metallurgiya kombinati va Qouldi hamda Yoshlik koni o‘zlashtirilmoqda.

Olmaliq ma’danli rayoni bir necha bloklarga bo‘lingan:

Markaziy blok (Olmaliq graben-sinklinal) shimoldan Burgundi yer yorig‘i, janubdan Miskon yer yorig‘i bilan chegaralangan. U I, II va III strukturaviy darajadagi jinslardan tuzilgan, ular orasida yuqori paleozoy effuziv jinslari ustunlik qiladi.

Janubiy blok Boshtovoq yer yorig‘idan janubda, janubi-sharqiy bloki esa Miskon yer yorig‘idan sharqda va Boshtovoq yer yorig‘idan shimolda joylashgan.

Janubi-sharqiy yoki sharqiy blok Miskon yer yorig‘idan sharqda va Boshtovoq yer yorig‘idan shimolda bo‘lib, asosan o‘rta paleozoy granodioritlari va yuqori paleozoy granodiorit-porfirlaridan tashkil topgan.

Bu bloklar o‘rta paleozoy granodioritlari va yuqori paleozoy granodiorit-porfirlarining keng rivojlanganligi bilan tavsiflanadi.



1-rasm. Olmaliqning sxematik-geologik xaritasi (I.V. Pleyshenko, M.A. Munduzova) *1-to‘rtlamchi davr yotqiziqlari; 2-quyi aqcha subkompleksi, qoplamali tuzilmalari; 3- qulchuloq ritmosvitasi ohaktoshlari; 4-sovuqbuloq ritmosvitasi kremniyli oraliq qatlamchalari mavjud ohaktoshlar; 5-mirzarabot ritmosvitasi kimyoviy ohaktoshlari; 6-yuqori qulota to‘plami, argillitli oraliq qatlamchali dolomitlar; 7-quyi qulota svitasi, qumtosh va argillitli oraliq qatlamchalari mavjud dolomitlar; 8-saralanmagan qulota va yuqori qoratog‘ota svitalari (effuziv qoplama ostida); 9-yuqori qoratog‘ota ritmli quyi svita, markerli gorizont dolomitlari; 10- quyi qoratog‘ota ritmosvitasi qumtoshli, argillitlli, angidritli oraliq qatlamchalari mavjud dolomitlar; 11-olmaliq ritmosvitasi qatlamlararo dolomitlar, angidritlar, argillitlar, qumtoshlar; 12-andezit-datsitli porfir, ularning tuflari va brekchilari; 13- kvarsli porfir, andezit porfir: 14-sardob svitasi gilli slaneslari O-S; Olmaliq turidagi 15-granodiorit-porfir; 16-kvarsli porfirga o‘xshash siyenodioritlar, dioritlar; Olmaliq turidagi 17-siyenodioritlar; 18-alyaskitlar; 19 – yer yoriqlari; 20-antiklinallar, sinklinallarning o‘qlari; 21- oltin, qo‘rg‘oshin, rux, misning konlari 22-oltin, qo‘rg‘oshin, rux, misning ma’dan namoyondalari; 23-kesmaning liniyasi; 24-istiqbolli hududlar, bu hududlar ichida istiqbolli svitalar.*

Mintaqaning tektonik tuzilishi burmali va yer yoriqlari tizimining rivojlanishi bilan belgilanadi. O‘rta paleozoy burmalanish davri yuqori paleozoy vulqonlari bilan ifodalangan katta antiklinal struktura bilan murakkablashgan. Ularning o‘qi shimoli-sharqqa qarab cho‘zilgan hamda D_{1-2} va D_3-C_1, C_2 vulqon yotqiziqlari bilan qoplanganligi tufayli ajralib turadi. Qatlam o‘qining shimoli-sharqiy cho‘zilganligi deformatsiyaning shimoli-g‘arbiy tomondan bo‘lganligini ko‘rsatadi. Submeridional burdalangan yoriqlari

bo‘ylab chapga siljish va subkenglik bo‘ylab o‘ng tomonga siljish sodir bo‘ldi. Shimoli-g‘arbiy yo‘nalgan ko‘ndalang burmali bo‘laklari qayd etilgan, bu shimoli-sharqiy tomondan deformatsiya mavjudligini ko‘rsatadi. Bunda burdalanish va ortogonal siljish yoriqlarining shimoli-sharqiy tuzilmalar shakllangan. Shuni ta’kidlash kerakki, deformatsiya o‘zgarishi yoriqlari yo‘nalishining o‘zgarishi bilan birga keladi. Ortogonal burdalanish yer yoriqlari uzoq rivojlangan va oltin ma’danlashuvda alohida o‘rin tutgan (2-rasm).



2-rasm. Qurama tog‘ tizmasining asosiy liniyamentlari va ma’dan qamrovchi svitalari.

Oltin ma’danlashuvini izlash uchun quyidagi omillarni hisobga olish kerak: karbonatli qatlamlarning mavjudligi, burdalangan zonalar va yoriqlari va ular bilan bog‘langan metasomatik o‘zgargan jinslar. Olmaliq ma’danli rayoni uchun qoratog‘ota, qulotog‘, qatrang‘i svitalari yotqiziqlarida oltin mavjud. Ortogonal burdalangan yoriqlari, shuningdek, shimoli-g‘arbiy va shimoli-sharqiy yer yoriqlari ma’danlashuvni boshqaradi. Qouldi konida oltinning ma’danlashuvi bilan bog‘liq bo‘lgan ichki formatsion va oraliq formatsion yer yoriqlari qayd etilgan.

Mutaxassislarning markaziy blokga bo‘lgan qiziqishi buy erda oltin, polimetall, mis va boshqa ma’danlashuv turlarini joylashishi uchun qulay bo‘lgan bir qator geologik omillar mavjudligi bilan bog‘liq bo‘lib, ular qoratog‘ota, qulotog‘, qatrang‘i svitalarining dolomitlari va jasperoidlari bilan chegaralangan.

Markaziy blok Olmaliq ma’danli rayonida birinchi o‘rinlardan birini egallaydi. Unda kvars-oltinli, polimetalli va mis-porfirli ma’dan namoyondalari ustunlik qiladi.

Markaziy blokda, shuningdek, mintaqaning eng yirik oltin ma’dali konlari - Qouldi, Yujniy, Yujniy II va boshqalar mavjud.

Bunda ushbu qonuniyatlarni bir qator olimlar A. Abdumavlanov, S.I. Gabitov, G.M. Zamorin, A.A. Kulakov, M.A. Munduzova, I.V. Pleshchenko, M.O. Sulaymonov, V.B. Taxsirov, A.X. Turesebekov, V.N. Joxov cho‘kindi terrigen-karbonatli qatlamlarida birlamchi oltin miqdorini aniqlaganlar.

Dissertatsiyaning **“Karlin turidagi konlar hududlari va boshqa mintaqalar orasidagi geologik umumiylik belgilari va farqlari”** nomli uchinchi bobida Karlin turidagi konlar hududlari va boshqa mintaqalar orasidagi geologik umumiylik belgilari keltirilgan. O‘zbekiston uchun noan’anaviy bo‘lgan karbonatli jinslardagi oltin minerallashuvini aniqlashga qiziqish 1970-yillarda Nevada shtatining oltin ma’danli zonasida Karlin turidagi katta hajmli oltin konlarining topilishi munosabati bilan boshlangan.

Jahon miqyosida yangi oltin konlarini izlash va aniqlash tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. AQShda nisbatan yaqinda (1960 yilda) Silur va Devon terrigen-karbonatli yotqiziqlaridan topilgan Nevada shtatida joylashgan “Karlin” turidagi oltin koni allaqachon global ahamiyatga ega bo‘lgan. “Karlin turidagi konlar” atamasi paydo bo‘lishi va qat’iy qo‘llanila boshlandi, unga siyrak tarqalgan oltin ma’danlashuvi (sulfidlardagi submikroskopik oltin, kamroq darajada erkin), bir oz o‘zgargan (kalsiysizlashish, kremniylashish, argillizitlashish natijasida) asosan shelf zonasida hosil bo‘lgan karbonatli jinslar va nomuvofiq ma’dan tanalari kiradi.

Karlin turidagi oltin konlari singenetik-epigenetik, tarqalgan, kechki mineral assotsiatsiyalar (pirit, realgar, aurpigment va boshqalar) bilan bog‘liq bo‘lgan oltin saqlovchi tuzilmalardir. Konlar o‘zgargan karbonatli jinslar – kremniylashgan, argillitlashgan va sulfidlashganligi bilan ajralib turadi.

Karlin turidagi konlarda oltin minerallashuvi asosan karbonatli jinslarda ordovikdan to kechki triasgacha bo‘lgan stratigrafik diapazonda joylashgan. Bu yerda pirit, realgar, aurpiment va boshqalarda to‘plangan submikroskopik o‘lchamdagi yupqa dispersli oltinlar aniqlangan. Ma’danoldi o‘zgarish jarayonlari tog‘ jinslarida kvarslashish argillizatlashish va uglerodli moddalarning to‘planishi bilan ifodalanadi.

O‘zbekistonda birinchi bo‘lib bir qancha oltin obyektlari karbonatli yotqiziqlarda joylashgan aniqlangan bo‘lib, ular Bukantov va Chaqilqalon tog‘larida mayda donali sulfidli minerallashuv bilan ifodalanadi; Chotqol-Qurama mintaqasi. O‘zbekistonda oltin ma’danlashuvining noan’anaviy apokarbonatli turi V.D.Tsoy, M.A.Munduzova va boshqalarning ishida batafsil yoritilgan. Terrigen-karbonatli oltin ma’danlashuvi “Karlin turi” erta bosqichida volframatli mineral tarkib (albit-sheelitli paragenetik mineral assotsiatsiyasi – PMA) va erta sulfidli bosqich (oltin bilan pirit-arsenopiritli PMA) bilan farqlanadi. Apokarbonatli oltin ma’danli hosil bo‘lishi modelining tuzilishi $SiO_2 + Al_2O_3$ (Au, WO_3-) sheelit va oltinning ma’danli eritmalar bilan ta’minlovchi yer yoriqlar bo‘ylab kirishi, ularning kvarsitlar va dolomitlarga aylanishi bilan ifodalanadi (V.D.Tsoy, 2003).

Olmaliq ma’danli rayonining terrigen-karbonatli jinslarida oltin ma’danli namoyondalari ma’lum qatlamli gorizontlar bilan chegaralangan. Oltin namoyondalari qatlamlanish, kesishgan tomirlar va ichki formatsion (kontakt) va oraliq formatsion zonalarida metasomatik o‘zgarishlar va kvars tomirlari shaklida keng rivojlangan. Ular kesmaning barcha qismlarida qayd etilgan. Strukturaviy va litologik xususiyatlari ularning taqsimlanishini nazorat qiladi. Ma’danlarning asosiy foydali komponenti kumush, polimetallar va boshqa elementlar bilan bog‘liq bo‘lgan oltindir.

MDH hududida “Karlin” turidagi konlarga Suzdal, Bolshevik oltin konlari; Suxoy log va boshqalar misol bo‘la oladi.

O‘zbekistonda birinchi marta Olmaliq ma’danli rayonida terrigen-karbonatli yotqiziqlarda oltinning tarqalishini o‘rganishda S.T.Badalov, I.M.Golovanov, A.X.Turesebekov, F.I.Islomov, M.A.Munduzova, V.D.Tsoy va boshqalar tomonidan tomonida tadqiqotlat olib borilgan. Mazkur yotqiziqlarni tashkil etuvchi tog` jinslarning oltindorligi istiqbollari aniqlangan. Ushbu tadqiqotlarning dolzarbligi O‘zbekiston Respublikasi mineral-xomashyo bazasini yanada kengaytirish imkonini beradi. Terrigen-karbonatli qatlamlarda oltin ma’danlashuvi va uning noan’anaviy turlaridan bo‘lishi mumkin. Olmaliq ma’danli rayoni terrigen-karbonatli jinslarning oltindorlik qobiliyatini Karlin turidagi namoyondalar va konlar bilan solishtirma tahlil birinchi marta M.A.Munduzova nomzodlik dissertatsiyasida olib borilgan. Kulrang va qora rangli organik moddalar sig‘diruvchi (bitumli) dolomitlardan olingan namunalar O‘zbekiston Respublikasi, hamda AQSH laboratoriyalarida tahlil qilingan. Ikki davlat laboratoriyalari tomonidan olingan natijalarning yaqinligi tasdiqlangan. Ikkala mintaqadagi terrigen-karbonatli jinslarida oltin minerallashuvi yupqa dispers xarakterga ega, diagnostika qilish va ajratib olish qiyin.

Epigenetik jarayonlar stratiform oltin va qo‘rg‘oshin-rux ma’danlashuvining tarqalishida, ayniqsa, tektonik va vulqon faolligi va ko‘plab intruziyalar bo‘lgan hududlarda muhim rol o‘ynaydi. Singenetik-epigenetik va epigenetik ma’danlashuv shakllangan. Ma’danoldi jarayonlarga tog‘ jinslarining kvarslashishi, argillizatlashishi va uglerodli moddalarning qayta yotqizilishi bilan kechadi.

Gatchel koni Nevada shtatining shimoli-sharqiy qismida joylashgan. Shimoli-shimoli-g‘arbiy yo‘nalishdagi 2200 metrli tasmasimon tanali granodioritlarga kirib boradigan apofizlar bilan chegaralangan. Argillitlardagi ma’dan tanalarining maksimal qalinligi va bu jinslarning ohaktoshlar bilan aloqa qilish joylarida 35 m. ma’danlarning tarkibida 3-5 g/t dan ortiq oltin mavjud. Ma’danlarda oltin zarralarining bir qismi 4 mkm gacha yetadi.

Olmaliq ma’danli rayonida (Markaziy blok) geologik va strukturaviy jihatdan va metasomatik o‘zgarishlari bo‘yicha Balantepa namoyodasi hamda Getchel va Kortets konlariga o‘xshaydi (3, 4-rasm).

Qurama subzonasida paleozoyning oxirlarida kontinental riftogenezga uchragan geosinklinal burmali mintaqa hisoblanadi. Ma’dan qamrovchi jinslar xuddi shunday paleogeografik sharoitda shakllangan. Bular gidrodinamik va gidrokimyoviy

rejimlarning keskin o‘zgarishi bilan o‘zgaruvchan ohaktoshlar, dolomitlar, qumtoshlar, gips va qatlamlararo alevrolilar qatlamlardan iborat hosil bo‘lgan sayoz dengiz va lagunali havzalarida hosil bo‘lgan jinslardir. Ular individual ritmlarning organik moddalar bilan intensiv to‘yinganligi bilan tavsiflanadi. Maxsus paleotektonik rejim, uzoq muddatli yirik yoriqlarning mavjudligi, birinchi navbatda, organik moddalarni o‘z ichiga olgan cho‘kindilarning oltin, qo‘rg‘oshin, rux va boshqa elementlarning singenetik konsentratsiyasi bilan boyib ketishiga sabab bo‘ladi (5, 6-rasm).



3-rasm. Getchel konining geologik sxemasi. 1-argillitli slaneslar, 2-ohaktoshlar, 3-granodioritlar, 4-andezit porfiritlar, 5-riolitli tuflar, 6-yer yoriqlari, 7-tomir-ajralmali ma’danlarning yotqiziqlari.



4-rasm. Balantepa rudasi hodisasining geologik tuzilish sxemasi (M.A. Munduzova, V.N. Johov) 1-cho‘kindi-qoplama, 2-karbonatlar D_3, 3-monokvarsitlar, 4-andezit-datsit tarkibli C_2 brechkilari, 5-andezit-datsitli porfiritlar, 6- maydalanish zonalari, 7- kvarslashish zonalari.



5-rasm. Olmaliq ma’danli rayonining stratigrafik ustuni

Karlin turidagi oltin ma’danalashuvi uchun hududning metallogen salohiyatini baholash Shimoliy Amerika qit’asining g‘arbiy qismi mintaqaviy geologik va metallogenik xususiyatlarini Chotqol-Qurama mintaqasi bilan taqqoslash natijalariga asoslanib, quyidagi xulosaga kelish mumkin.

Amerika qit’asida Karlin turidagi konlar havza va tizmali provinsiyalarda joylashgan bo‘lib, geotektonik ma’noda Kordilyera geosinklinal burmali sistemasidagi kontinental rifti hisoblanadi.

Quramaning pastki zona hududi geosinklinal burmali mintaqa bo‘lib, paleozoy erasi oxiridagi kontinental riftogenezi vujudga kelgan (T.Sh. Shayoqubov, T.N. Dalimov).

Ikkala hududda konlar fazoviy va vaqt jihatdan magmatik faollikning namoyon bo‘lishi bilan bog‘liq. Olmaliq ma’danli rayonida – kvarsli porfir, granodioritlar, siyenodioritlar C_3, Karlin turida esa – kvarsli monsonitlar, granodioritlar bilan ifodalangan uchlamchi davrga mansub subintruziv jinslar mavjud.

Ma’dan tanalarining moddiy tarkibi, mineral assotsiatsiyalari, ularni tashkil etuvchi minerallarning tipomorfik xususiyatlari farqlarga ega va nisbatan yaqin:

- cho‘kindi oltinning ko‘z ilg‘amaydigan “mikroskopik oltin” yoki “ko‘rinmas mayin dispersli oltin” deb ataladigan belgilariga mavjud;
- minerallashuvning geologik va strukturaviy sharoitlari;
- kvarslashish, dolomitlashish, argillizatlashish, past haroratli kvars-serisitli metasomatik jarayonlarining keng rivojlanishi;
- qamrovchi muhitning tarkibi – terrigen-karbonatli yotqiziqlar;
- Karlin turidagi konlari (Gatchel, Evrika, Battle Mountain) bilan Olmaliq ma’danli rayoni (Qorasoy, Seraya Skala, Burgunda va boshqalar) o‘rtacha va past sulfidli konlar ma’danlarining o‘xshash mineral tarkibi;

- ma’danlashuvning bir xil litologik va stratigrafik nazorati;
- ma’danoldi geokimyoviy xususiyatlari (Hg dan tashqari).



6-rasm. Umumiy stratigrafik ustun Maggie Creek kichik okrugi.

Turli qit’alarda turli yoshdagi ma’dan hosilalari butunlay bir xil bo‘lishi dargumon. Ular asosiy jihati bilan – ma’danlashuvning litologik-stratigrafik nazoratida, geotektonik rejimida ham ma’dan qamrovchi qatlamlar, ham ma’dan tanalari va ma’danlar paragenezi o‘xshashdir.

Olmaliq ma’danli rayoni terrigen-karbonatli jinslarining oltindorligi Karlin turidagi namoyondalar va konlari bilan solishtirma tavsifi birinchi marta M.A.Munduzova tomonidan amalga oshirilgan. (1-jadval).

Kulrang va qora organik tarkibli (bitumli) dolomitlardan tanlab olingan namunalar O‘zbekiston Respublikasi laboratoriyalarida ham, AQSh laboratoriyalarida ham tahlil qilindi. Ikki davlat laboratoriyalari tomonidan olingan natijalarning yaqinligi (bir xil tartibda) tasdiqlandi.

Oltin va boshqa metallarni olish uchun choʻkindi komplekslardan olingan namunalarning laboratoriya va texnologik tadqiqotlari, shu jumladan qora, bitumli dolomitlardagi mayda, sochilgan oltin donalarining organik moddalar bilan bogʻliqligini aniqlash boʻyicha tadqiqotlar olib borildi.

Shunday qilib, Karlin tendentsiyasida qilingan konlar juda xilma-xildir va shuning uchun Karlin turiga Karlin koniga oʻxshash va quyidagilar bilan tavsiflangan obyektlarni kiritish kerak:

- maʼdan qamrovchi jinslar kesimining ohaktosh-gilli tarkibi;
- maʼdan tanalarining qatlamli tabiati;
- tomir-ajralmali tarqalgan maʼdanlashuv;
- sulfidlarda mayda dispers (mikron) oltin ajralishlarga ega maʼdanlarning sulfid (asosan pirit-arsenopirit) tarkibi;
- argillizitlar bilan bogʻliq holda past haroratli surma-margimush-simob minerallashuvining mavjudligi.

1-jadval

Laboratoriya tadqiqotlarining qiyosiy natijalari

Oltin miqdori, g/t			
Mineralning nomi	**Minimal oʻrtacha**	**Maksimal**	**Oʻrtacha**
Olmaliq maʼdanli rayoni tomonidan			
Kvars	1,17	25,8	8,16
Dolomit	0	20,30	3,03
Kaolinit	0	13,5	1,90
Serisit	0	5,67	0,84
Pirit	0	4,76	0,69
Realgar	0	1,41	0,02
Montmorillonit	0	16,47	2,25
Kalsit	0	23,6	5,12
Siderit	0	8,3	0,09
Karlin turidagi konlar boʻyicha			
Kvars	0,10	7,70	3,12
Dolomit	0,02	5,00	1,20
Kvarsit	0,00	7,33	3,10
Ohaktosh	0,00	2,50	1,30
Kalsit	0,70	4,90	2,80
Serisit	0,00	2,70	1,40
Siderit	0,00	1,80	1,20
Pirit	0,50	116,70	58,40
Gyotit	1,60	53,90	28,60

Karlin turidagi istiqbolli obʼektlarni geokimyoviy tadqiqotlarni qayta koʻrib chiqish jarayonida aniqlash mumkin, xususan, oʻzgartirilgan (kremniylashgan) karbonatli jinslari orasida simob va surma oreollarining mavjudligi. Chotqol-Qurama, Janubiy Fargʻona, Zirabuloq va Tomditov viloyatlari tadqiqot hududlari sifatida qiziqish uygʻotadi.

Toʻrtinchi bob **“Olmaliq maʼdanli rayonining terrigen-karbonatli qatlamlarining maʼdan-formatsion turlari”** Katta va noyob konlarga toʻgʻri keladigan zahiralarning sezilarli ulushi koʻpayishiga qaramay, Chotqol-Qurama mintaqasida oltin, mis, polimetallar va boshqa foydali qazilmalar zahiralarining koʻpayishi, kichik konlarni

ochiq usulda qazib olish bilan bog‘liq. Olmaliq hududida mis-porfir, skarn-polimetalli, pirit-polimetalli, apokarbonatli oltin-kvarsli, oltin-sulfid-kvarsli, kvarts-oltin-kumushli va boshqa turdagi konlarning istiqbolli ma’dan-formatsion turlari mavjud.

Terrigen-karbonatli jinslardagi ma’danoldi metasomatizmning intensivligi ma’dan formatsiyasi yotqiziqlari ichida va konlari oralig‘ida ahamiyatsizdan intensivgacha o‘zgarib turadi, bu minerallashuvning litologik nazorati keng tarqalganligini ko‘rsatadi. Ayrim hududlarda birlamchi litologik tarkibi kvarslashish, dolomitlashish, argillitlashish va sulfidlashish natijasida o‘zgargan. Ro‘yxatga olingan oltin kontsentratsiyasining maksimal miqdori qoratag‘ota, qulota, qatrang‘i svitalari, qatlamlararo yashil-kulrang, qora, yupqa va o‘rta qatlamli dolomitlar zonalariga, shuningdek o‘zgargan kremniylashgan ohaktoshlarga to‘g‘ri keladi.

Olmaliq ma’danli rayoni metasomatitlari M.A. Munduzova, V.N. Joxov va M.O. Sulaymonov tomonidan tadqiq etilgan. Bu yerda ma’dandan oldingi bosqichda qatlamlarda ikkilamchi kvarsitlar rivojlangan bo‘lib, ularning ichki zonasi kvars-slyudali (pirit bilan), tashqi zonasi esa xlorit-pirit-slyudali metasomatitlar bilan ifodalangan. Katrang‘i zonasida skarnoidlar (granatli) va silikatlar (monokvars tanalari) lokal darajada rivojlangan. Ma’dan yotqizilish jarayoni bilan bog‘liq bo‘lgan metasomatitlardan o‘rganilayotgan ob’ektlarning yadro zonasidan tashqariga qadar deyarli barcha assotsiatsiyalarni o‘z ichiga oladi. Oralig‘ formatsion morfoturlarda (Seraya Skala, Karasay) metasomatit tanasining qalinligi kamdan-kam hollarda 2-5 m dan oshadi. Yupqa kesmalarda metasomatik jismlarning yadro qismlarida 70 % gacha kvars, 10 % gacha yangi hosil bo‘lgan karbonat, 3-5 % serisit va 7-10 % gacha ma’danli minerallar mavjud. Metasomatit zonalarining asosiy qismlaridan 5-7 m gacha bo‘lgan masofada uzoqlashganda kvarlashish darajasi pasayadi va ma’danli minerallar yo‘qoladi.

Skarn (episkarn) morfoturli metasomatitlar diorit, siyenodiorit tarkibidagi shtoksimon va daykasimon tanalar bilan karbonatli yotqiziqlarning kontaktlarida rivojlangan. Ularning moddiy tarkibi intensiv kremniylashgan (70 % gacha), serisitlashgan karbonatlar (5 % gacha), ko‘p miqdordagi mayda donador granatalar bilan ifodalanadi. Ushbu morfoturdagi metasomatit zonalarining qalinligi 3-7 m dan oshmaydi. Ularning rayonlashtirish odatda kontakt turiga o‘xshaydi.

Olmaliq ma’danli rayonining D_3-C_1 karbonat boyitilgan qoratog‘ota, qulotog‘, qatrang‘i va qulchuloq svitalari bilan ifodalangan bo‘lib, ularning yuza qismi ham, C_2 qoplamali effuziv rivojlangan. Ma’dan tanalari uchta asosiy morfotur bilan ifodalanadi – ichki formatsion, oralig‘ formatsion (kontakt) va qoratog‘ota, qulotog‘, qatrang‘i, tog‘ jinslari va kamroq darajada qulchuloq svitalari jinslari hisobiga to‘g‘ri keladi (7-rasm).

Oltinli ma’danlar va oltindor qatlamlarni aniqlash mezonlari cho‘kindi jinslardagi nisbatan yaqinda aniqlangan, an’anaviy ravishda amalda istiqbolliligi kam namoyondallar sifatida hisoblangan.

Chotqol-Qurama mintaqasida D_3-C_1 terrigen-karbonatli qatlamlarda oltin ma’danlashuvi mustaqil ravishda (2-jadval), shuningdek, ularning kontaktlarida kon va

namoyondalar sifatida (Qorasoy, Seraya Skala, Zarkent, Qatrang‘i, Qoraxona) rivojlangan.

Asosiy ma’dan struktura oraliq formatsion kontakt zonada bo‘lib, u qiya yotuvchi piroksenli andezitlarning subvulkanik fatsiyasi hisobiga pirit bilan boyigan karbonat-serisit-kvarsli va karbonat-serisitli metasomatitlar vujudga kelgan.



7-rasm. Olmaliq ma’danli rayonida oltin ma’danlashuvining stratigrafik sathi va joylashuvlari.

2-jadval

Chotqol-Qurama tog‘lari cho‘kindi konlarning geologik joylashuvlari

Геолого-структурная позиция	Схематическое геологическое строение	Морфотипы рудных тел	Рудоконтро-лирующие структуры	типы измене-ния вмещаю-щих пород	Вертикальный размах оруденения	Примеры месторожде-ний и рудо-проявлений
Межформационные зоны окварцевания на контакте терригенно-корбанатных пород и вулкнитов, осложненые субсогласными пологими нарушениями		Пластообразные и линзообразные полого падающие залежи	Бургундинский Каульдинский разломы	Окварцевание скарнирование, серпентинизация аргиллитизация	По простиранию и падению достигает нескольких сотен метров	Султанбиби
Контакт карбонатных пород с вулканогенными образованиями		Пластообразные и линзообразные полого падающие залежи, осложненные секущими рудоподводящими нарушениями	Бургундинский. Мисканский разломы и их оперения	Окварцевание скарнирование, серпентинизация	400 х 200 м, 200 х 30 м, 100 х 15 м.	1. Катранг 2. Карахан 3. Шодыульган
Меж-и внутриформационные зоны окварцевания осложненные телами замещения в терригенно-карбонатных породах		Пластообразные и линзообразные полого падающие залежи, осложненные секущими рудоподводящими нарушениями	Бургундинский. Мисканский разломы и их оперения	Окварцевание хлоритизация, карбонатизация	600 х 72 м, 300 х 80 м.	1. Карасай 2. Серая Скала
